

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17341938>

MAKROIQTISODIY STATISTIKADA EKOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLIHNING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL YAIM KONSEPSIYASINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Mirzanov Berdak Joldasbaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası proffesori

bmirzanov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada milliy hisoblar tizimida ekologik omillarni hisobga olishning uslubiy asoslari hamda «yashil YaIM» konsepsiyasini qo'llash bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan. Makroiqtisodiy statistikaga tabiiy kapital va ekotizim xizmatlarini integratsiyalash, shu jumladan ekologik hisoblardan foydalanish hamda iqtisodiy o'sishning an'anaviy ko'rsatkichlarini **to'g'rilash** bo'yicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Barqaror rivojlanish va «yashil» iqtisodiyotga qaratilgan strategik yo'lni amalga oshirish nuqtai nazaridan O'zbekistonda yashil yalpi ichki mahsulotni joriy etish istiqbollari alohida e'tibor qaratilgan. Ekologik omillarni hisobga olishning xalqaro usullarini milliy statistikaga moslashtirish tabiiy resurslarni samarali boshqarish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur tahliliy ma'lumotlar bazasining sifatini oshirish imkonini beradi.

Tayanch so'zlar. yashil YaIM, barqaror rivojlanish, makroiqtisodiy statistika, tabiiy kapital, ekotizim xizmatlari, ekologik hisoblar, O'zbekiston.

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari nafaqat yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga, balki uning ekologik barqarorligini mustahkamlashga ham qaratilgan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish va inson kapitali bilan bir qatorda milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tabiiy kapitalni hisobga olmasdan uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish mumkin emas.

Iqtisodiy o'sishni o'lchashning an'anaviy usullari atrof-muhitning degradatsiyasi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog'liq xarajatlarni e'tibordan chetda qoldiradi, bu esa rivojlanish barqarorligini noto'g'ri baholashga olib keladi. Shu bois "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish, resurslarni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda ekologik indikatorlarni milliy hisoblar tizimiga integratsiyalash kabi yo'nalishlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiiy kapital foydalanish jarayonida qadrsizlanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy aktivlarning muhim turi sifatida qaraladi. Uning tarkibida tiklanadigan resurslar (ekotizim tovarlari va xizmatlari) hamda tiklanmaydigan resurslar (neft, gaz, rudalar va boshqalar) ajratiladi. Ularni hisobga olish turli uslubiy yondashuvlarni talab etadi. Xalqaro amaliyotda, xususan Atrof-muhitni iqtisodiy hisobga olish tizimi (SEEA), qayta tiklanmaydigan resurslarning tugashi inobatga olingan holda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tuzatish va ekotizim xizmatlarini baholashga alohida e'tibor qaratiladi.

O‘zbekiston uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nafaqat barqaror rivojlanish, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot strategiyasida (2022–2026-yillar) yer va suv resurslarining qisqarishi asosiy tahdid sifatida belgilangan bo‘lib, bu holat makroiqtisodiy tahlilda hamda YaIMni shakllantirish jarayonida tabiiy kapitalni hisobga olish zaruratini oldindan belgilab beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy kapital degradatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini miqdoriy baholash bo‘yicha dastlabki urinishlar 1970-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrda amerikalik olimlar U. Nordxaus va J. Tobin (Yale University) tadqiqotlarida yalpi milliy mahsulotni ekologik omillarni hisobga olgan holda tuzatishga asoslangan iqtisodiy farovonlik ko‘rsatkichi (ingl. *Measure of Economic Welfare*) konsepsiyasi taklif etilgan. Xususan, hisob-kitoblarga urbanizatsiyaning salbiy oqibatlari (*disamenities of urbanization*) sifatida talqin etiladigan ekologik zarar miqdorlari ham kiritilgan [8].

Ushbu yo‘nalishning keyingi rivojlanishi 1980-yillarning oxiriga to‘g‘ri keladi. G. Deyli va J. Kobb tomonidan ishlab chiqilgan barqaror iqtisodiy farovonlik indeksi (*Index of Sustainable Economic Welfare, ISEW*) ana shu davrda shakllangan. Oldingi yondashuvlardan farqli o‘laroq, ISEW nafaqat YIMning an’anaviy tarkibiy qismlarini, balki atrof-muhitni ifloslantirish xarajatlari (*environmental emission costs*) hamda tabiiy kapitalning qadrsizlanishi (*depreciation of natural capital*) kabi omillarni ham inobatga olgan. Statistik ma’lumotlarning sifati va ishonchliligi bilan bog‘liq ayrim uslubiy cheklovlarga qaramay, mazkur ko‘rsatkich Avstraliya, Avstriya va Belgiya kabi bir qator mamlakatlarda sinov tariqasida qo‘llanilgan.

Xalqaro amaliyotda ISEW bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishga qaratilgan boshqa muqobil YAIM ko‘rsatkichlari ham ishlab chiqilgan. Ular qatoriga BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan 1990-yilda joriy etilgan Inson taraqqiyoti indeksi (*Human Development Index, HDI*), shuningdek K. Loun va R. Sanders tomonidan 1999-yilda taklif etilgan Real iqtisodiy foyda barqarorligi indeksi (*Sustainable Net Benefit Index*) kiradi. Mazkur ishlanmalar "yashil hisoblar" konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qilib, keyinchalik ekologik o‘lchovni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimiga kiritish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratdi [5].

Keyingi davrda tabiiy kapitalni hisobga olishning institutsional bazasi xalqaro tashkilotlarning tashabbus va sa’y-harakatlari natijasida rivoj topdi. Jahon banki milliy jamg‘armalarni baholashda tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida yuzaga kelgan zararni inobatga olish imkonini beruvchi tuzatilgan sof jamg‘armalar (*Adjusted Net Savings*) ko‘rsatkichini joriy etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) va BMT Universiteti esa jismoniy va inson kapitaliga qo‘shimcha ravishda uzoq muddatli rivojlanishning strategik komponenti sifatida tabiiy kapitalni ham qamrab oladigan Yalpi boylik indeksi (*Inclusive Wealth Index*) ni ishlab chiqdi.

Bundan tashqari, BMT tomonidan xalqaro statistika standarti sifatida rasman tan olingan Ekologik-iqtisodiy hisob tizimi (*System of Environmental-Economic Accounting, SEEA*) keng qo'llanilmoqda. Mazkur tizim ekologik parametrlarning makroiqtisodiy hisob-kitoblarga kompleks tarzda integratsiya qilinishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar va xalqaro statistik amaliyotda 1970-yillarda boshlangan dastlabki eksperimental hisob-kitoblardan tabiiy kapitalni hisobga olishning yaxlit metodologiyasini shakllantirishgacha bo'lgan evolyutsiya kuzatilmoqda. Bu jarayon barqaror iqtisodiy o'sishning ekologik o'lchovi tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini yaqqol namoyon etadi.

METODOLOGIYA

An'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, xususan YaIMni tuzatish zarurati ularning uslubiy cheklovlari bilan izohlanadi. Milliy hisoblar tizimi (MHT) doirasidagi hisob-kitoblar, asosan, bozor ishlab chiqarishiga yo'naltirilganligi sababli rivojlanishning ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatlari ushbu tizim doirasida yetarlicha qamrab olinmaydi.

YaIMning asosiy metodologik muammosi shundan iboratki, u iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini to'liq aks ettirmaydi: tabiiy kapitaldan foydalanish va uning kamayishi bilan bog'liq xarajatlar, ekologik zararlar hamda resurs bazasining uzoq muddatli barqarorligi hisobga olinmay qoladi. Natijada, faqat YaIM asosida baholangan iqtisodiy dinamika rivojlanishning haqiqiy manzarasini buzib ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanishni kompleks baholash uchun YaIMga tegishli tuzatishlar kiritish, shuningdek ekologik va ijtimoiy omillarni birlashtiruvchi muqobil ko'rsatkichlarni joriy etish zarurdir.

«Tabiiy kapital» toifasi BMTning Atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasi deklaratsiyasida (Rio-de-Janeyro, 1992) [2] xalqaro miqyosda tan olingan. Ushbu hujjatda ekologik omillarni iqtisodiy rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, atrof-muhit holatining tabiiy kapitalni takror ishlab chiqarishga ta'sirini baholash hamda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik komponentlarni hisobga olishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Taklif etilgan vositalardan biri sifatida esa an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekologik ahamiyatga ega ma'lumotlar bilan to'ldiruvchi va ularning tahliliy qiymatini oshiruvchi yordamchi hisoblari (satellite accounts) ilgari surilgan [11].

Tabiiy kapitalni hisobga olish vazifalarini tizimlashtirishning yorqin misoli Yevropa Ittifoqining atrof-muhitni muhofaza qilish dasturidir. Unda asosiy e'tibor tabiiy resurslarni monitoring qilish va qayta tiklashning samarali vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan [10]. Shu bilan birga, milliy statistika amaliyotida tabiiy kapital ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy hisobga integratsiya qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu, o'z navbatida, MHT-2008 metodologiyasida tabiiy kapitalni identifikatsiya qilish uchun maxsus tarkibiy bo'linmaning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shunga o'xshash cheklovlar xalqaro ishlanmalarda ham kuzatiladi:

BMTning Ekologik-iqtisodiy hisob tizimi (2012, 2014) va ekotizim hisoblari bo'yicha qo'llanmalarda biotik va abiotik omillar majmuasini ifodalovchi «ekotizim aktivlari» tushunchasi qo'llaniladi. Ushbu kategoriyaning o'ziga xosligi uni qiymatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda to'liq aks ettirishni qiyinlashtiradi hamda hisob-kitoblarning amalda qo'llanishini murakkablashtiradi [9].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqida tabiiy kapitalni hisobga olishning kompleks vositalarini shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratilgan bo'lsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston uchun uning dolzarbligi asosan suv resurslari taqchilligi, yerlarning degradatsiyasi va Orol fojiasi oqibatlari kabi o'ziga xos muammolar bilan belgilanadi. Bunday sharoitda tabiiy kapitalni hisobga olish barqaror rivojlanishning strategik vositasi sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga, milliy statistika amaliyotida tabiiy kapitalni mustaqil iqtisodiy obyekt sifatida aniqlash muammoli bo'lib qolmoqda, natijada hisob-kitoblar faqat ayrim hollarda YaIM tarkibiga kiritiladigan ekologik xizmatlar bilan chegaralanadi.

Ekologik xizmatlar tarkibi va ularning chegaralaridagi noaniqlik, ushbu xizmatlarning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ta'sirini baholashda sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Biroq, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, tabiiy kapitalni makroiqtisodiy hisob-kitoblar tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Xususan, YaIMning tuzatilgan qiymatlarini shakllantirishda agregat ko'rsatkichlarga maxsus tuzatishlar kiritish orqali ekologik omillarni hisobga olish tajribasi qo'llanilgan.

O'zbekiston uchun ushbu tajriba “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish hamda tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan alohida dolzarblik kasb etadi. Shu munosabat bilan milliy statistika tizimining transformatsiyalashuvi jarayonida tabiiy kapital ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy tahlil tizimiga integratsiya qilish imkonini beruvchi metodologik bazani shakllantirish muhim vazifa sifatida qaraladi.

Birinchidan, milliy hisoblar tizimida tabiiy kapitalni hisobga olishning uslubiy asoslarini aniqlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Aniq belgilangan uslubiy mexanizmlarning to'liq shakllanmaganligi tabiiy kapitalni iqtisodiy obyekt sifatida to'g'ri identifikatsiya qilishni qiyinlashtirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, agregat ko'rsatkichlarning tahliliy va prognoz maqsadlarida qo'llanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'yadi.

Ikkinchidan, ekotizim xizmatlarini baholashda milliy sharoitlarga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. O'zbekistonning tabiiy-iqlim xususiyatlari — jumladan, qurg'oqchil ekotizimlar, suv resurslarining o'ziga xosligi va yerlarning degradatsiyasi bilan bog'liq muammolar — ekotizimlarning barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini to'liqroq baholash imkonini beruvchi maxsus indikatorlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Uchinchidan, tabiiy kapital holati va undan foydalanish ko'rsatkichlarini statistik hisob va monitoring tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalash ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborot-tahliliy bazani kengaytirishga, shuningdek, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqurroq tahlil etishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, tuzatish mexanizmlarini mavjud milliy axborot tizimiga, jumladan ekologik va tarmoq statistikasi bilan muvofiqlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bunday muvofiqlashtirish ma‘lumotlarning uslubiy izchilligi va taqqoslanuvchanligini ta‘minlaydi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik hujjatlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan hisob-kitoblarning ishonchliligini oshiradi.

Turli mamlakatlarning milliy statistika amaliyotida iqtisodiy o‘sish barqarorligini tavsiflash uchun eng keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardan biri “yashil yalpi ichki mahsulot” (YAYIM, *Green GDP*) hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ekologik omillarni, xususan, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi natijasida yuzaga keladigan zararni hisobga olgan holda, YaIMning bazaviy qiymatini tuzatish orqali aniqlanadi.

Zamonaviy xalqaro statistika amaliyotida yashil yalpi mahsulotning ikki asosiy varianti farqlanadi: YAYIM -1 va YAYIM -2. Har ikkala variant ham tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni qamrab oluvchi rasmiy YaIMning o‘zgartirilgan qiymatini ifodalaydi.

YAYIM-1 rasmiy yalpi ichki mahsulot hamda atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy kapitalning kamayishi bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ushbu yondashuvning nisbatan sodda tuzilishiga qaramay, uning asosiy cheklovi tabiiy ekotizimlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning qiymatini hisob-kitoblarga kiritmasligidadir (*ecosystem services*). Natijada, YAYIM -1 ko‘rsatkichi ekologik xarajatlarning faqat muayyan qismini qayd etadi va tabiiy kapital degradatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga ta‘sirini to‘liq darajada aks ettira olmaydi.

Ishlab chiqilayotgan milliy hisoblar tizimlari doirasida YaIMga an‘anaviy tuzatishlar kiritishga muqobil yondashuv sifatida tadqiqotchilar tomonidan MHTga daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlarni hamda ekotizim xizmatlari qiymatini aks ettiruvchi balans tuzilmalarini kiritish taklif etilgan. Mazkur yondashuvlarda ekotizim xizmatlari tabiiy muhitdan foydalanish va turli xil ekotizimlarning (agrar, o‘rmon, suv va boshqalar) faoliyati natijasida benefitsiarlar — ishlab chiqarish subyektlari, davlat sektori, uy xo‘jaliklari va boshqa iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan olinadigan iqtisodiy foydaning manbai sifatida talqin etiladi.

Ekotizim xizmatlaridan foydalanish natijasida shakllanadigan jami foyda ularning iqtisodiy qiymati sifatida aniqlanadi hamda makroiqtisodiy hisob tizimiga kiritilishi mumkin. Xalqaro statistika amaliyotida ushbu yondashuv kombinatsiyalangan ekologik-iqtisodiy mahsulot (KEIM, Combined environmental-economic product) deb nomlanuvchi tuzilmalarda o‘z aksini topadi. Mazkur ko‘rsatkich quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$KEIM = YaIM + EX$$

bu yerda:

YaIM — yalpi ichki mahsulot,

EX — iste‘mol qilingan ekotizim xizmatlarining qiymati [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tishi hamda tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish sharoitida "yashil YaIM" va ekologik ichki mahsulot kabi tuzatilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha xalqaro tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyotning turli tarmoqlari — qishloq xo'jaligi, sanoat va uy xo'jaligi uchun iqtisodiy foyda manbai sifatida qaraladigan ekotizim xizmatlarini milliy hisoblar tizimiga integratsiya qilish orqali yaratiladi.

Bunday yondashuv ekologik omillarning iqtisodiy natijalarga ta'sirini yanada aniqroq baholash, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, u tabiiy resurslardan foydalanishning haqiqiy samaradorligini aniqlash va resurslarni tejash, qayta tiklash hamda ularni oqilona boshqarishga rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston uchun ushbu yondashuvlarning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, iqtisodiyotning agrar sektor hamda suvni ko'p talab qiladigan paxtachilik tarmog'iga yuqori darajada bog'liqligi agroekotizim xizmatlari deb ataladigan xizmatlarni hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga integratsiyalashuvi nafaqat qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasini aniqlashda, balki yerlarning degradatsiyasi, cho'llanish jarayonlari va suv resurslarining kamayishi bilan bog'liq ekologik xarajatlarni ham hisobga olish imkonini beradi.

Bunday yondashuv milliy hisoblar tizimida qishloq xo'jaligining haqiqiy samaradorligini baholashga, resurslardan foydalanishda ekologik barqarorlikni ta'minlashga hamda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Orol inqirozi oqibatlari va Orolbo'yi ekotizimlari holatining yomonlashuvi statistik monitoring tizimiga tiklovchi hamda kompensatsiyalovchi ekotizim xizmatlari qiymatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni kiritishni taqozo etadi. Bu esa Qoraqalpog'iston va ekologik xavf ostida qolgan boshqa hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yanada xolis va real baholash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida yakuniy ekotizim xizmatlari asosida tuzatilgan YaIMni hisoblash istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$YAYIM = YaIM + \sum_{i=1}^n P_i \cdot Q_i$$

bu yerda:

i – ekotizim xizmatlari turi (suv ta'minoti, o'rmon resurslari, agroxizmatlar va boshqalar),

P_i – ekotizim xizmatining bozor qiymati (narxi),

Q_i – muayyan davrda iste'mol qilingan ekotizim xizmatlari hajmi,

n – hisobga olinadigan ekotizim xizmatlari soni.

Mazkur ko'rsatkich suv, o'rmon va agrar ekotizimlarning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini baholashda, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish

samaradorligini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin. Shu orqali milliy hisoblar tizimida iqtisodiy o'sishning ekologik omillar bilan uyg'unligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Ekologik tuzatilgan ko'rsatkichlarni tuzishga muqobil yondashuv tabiiy resurslarning iqtisodiy aktivlar sifatidagi qiymati dinamikasini baholashga asoslanadi. O'zbekiston sharoitida bu, ayniqsa, suv resurslarining kamayishi, mineral-xom ashyo bazasining tugab borishi va yerlarning degradatsiyasini hisobga olish uchun muhimdir. Ishlab chiqarish usuli doirasida hisoblash quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$EIM = MSQV - UEXEIM$$

bu yerda:

EIM – ekologik ichki mahsulot;

$MSQV$ – tabiiy resurslardan foydalanishga moslashtirilgan sof qo'shilgan qiymat;

UEX – uy xo'jaliklarining ekologik xarajatlari.

XULOSA

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy kapitalni milliy hisoblar tizimiga integratsiyalash hamda an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekologik omillarni hisobga olgan holda tuzatish zamonaviy statistik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. MHT doirasida ekologik hisoblarni shakllantirish tabiiy resurslardan foydalanish jarayonini va ekologik omillarning yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichiga ta'sirini hisobga olish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning real istiqbollari aniqlash va baholashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

O'zbekiston uchun bunday metodologik yondashuvlar alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, mamlakat salmoqli tabiiy-resurs salohiyatiga – yer, suv, energetika va biologik resurslarga ega. Ushbu resurslar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, ulardan samarasiz yoki nooqilona foydalanish barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin. Shu sababli tabiiy kapitalning to'g'ri hisobga olinishi va iqtisodiy tahlil tizimiga integratsiyasi milliy rivojlanish strategiyasining zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, 2025-yilning O'zbekistonda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilinishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bunday sharoitda tabiiy kapital holatini hamda uning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ko'rsatadigan ta'sirini xolis va kompleks baholash imkonini beradigan statistik hisob tizimini shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sishning ekologik o'lchovlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish darajasini baholash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tuzatilgan YaIM hisob-kitoblariga resurs ko'rsatkichlarini kiritish, shuningdek, integratsiyalashgan ekologik-iqtisodiy hisoblarni ("yashil hisoblar") shakllantirish O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab

chiqishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bir qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- tabiiy aktivlarning joriy holatini yanada aniqroq baholash;
- xo'jalik faoliyati jarayonida ularning qadrsizlanishini hisobga olish;
- ekologik omillarni milliy darajadagi strategik va tahliliy ko'rsatkichlar tizimiga integratsiyalash.

Amaliy jihatdan bunday metodologiya tabiiy kapital harakatini aks ettiruvchi maxsus balanslarni ishlab chiqish uchun institutsional asos yaratadi hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, YaIM tarkibida ekologik xarajatlarni samarali hisobga olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan balans tuzilmalarini joriy etish orqali tabiiy resurslarni hisobga olish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribadan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy statistikaning jahon standartlariga yaqinlashtirish va globallashtirish sharoitida barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan siyosatning metodologik bazasini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, O'zbekistonda «yashil yalpi ichki mahsulot» ko'rsatkichini hamda tabiiy-resurs kapitalini tizimli hisobga olish mexanizmlarini joriy etish istiqbollari nafaqat milliy statistika bazasini takomillashtirish, balki ekologik va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirgan holda samarali davlat siyosatini ishlab chiqishning ishonchli vositasini yaratishni ham nazarda tutadi. Ushbu yondashuvning amaliyotga joriy etilishi resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, atrof-muhitga yuklamani kamaytirish hamda milliy rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydigan iqtisodiy o'sishning yangi, innovatsion modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmon. 28.01.2022, PF-60-son.
2. Deklaratsiya Rio-de-Janeyro po okruzhayushchey srede i razvitiyu, 14.06.1992 [Elektron resurs]. – Rezhim dostupa: <http://docs.cntd.ru/document/8308082> (data obrascheniya: 10.07.2019).
3. Antal M., van den Bergh J. Evaluating Alternatives to GDP as Measures of Social Welfare/Progress // Working Paper. – 2014. – I. 56, March. – 12 p.
4. Bazard J., Banzhaf S. What are ecosystem services? The needs for standardized environmental accounting units // Ecological Economics. – 2007. – V. 63, I. 2–3, August. – P. 616–626.
5. Chelli F. M., Ciommi M., Gigliarno C. The index of sustainable economic welfare: A comparison of two Italian regions // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2013. – V. 81. – P. 443–448.
6. Costanza R., Daly H.E. Natural Capital and Sustainable Development // Conservation Biology. – 1992. – V. 6, I. 1. – P. 37–46.
7. Ecosystem and Human Well-being. A report of the millennium ecosystem

assessment. – 2005. – P. 49, 71.

8 Fisher B., Costanza R., Turner R.K., Morling P. Defining and classifying ecosystem services for decision making / CSERGE. – P. 10–13.

9 SEEA Experimental Ecosystem Accounting: Technical Recommendation. UNEP/UNSD/CBD. – 2017. – V. 4.1, I. 6, March. – P. 36.

10. Stjepanovic S., Tomic D., Skare V. A new approach to measuring green GDP: a cross-country analysis // Entrepreneurship and Sustainability Issues. – 2017. – V. 4, I. 4. – P. 574–590.

11. Sutton P.C., Costanza R. Global estimates of market and non-market values derived from nighttime satellite imagery, land cover, and ecosystem service valuation // Ecological Economics. – 2002. – V. 41, I. 3. – P. 512.

12. United Nations Conference on Environment & Development. Rio de Janeiro, Brazil, 3–14 June 1992. – par. 8.41